



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

**Shahodatnoma blankalarini hisobdan chiqarish to‘g‘risida**

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi bitiruvchilari uchun elektron shahodatnoma joriy etilganligi va shahodatnoma dublikatini berish bo‘yicha elektron davlat xizmatlari yo‘lga qo‘yilganligi, elektron shahodatnomalarning yangi davlat namunasi tasdiqlanganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlash, hisobga olish, saqlash, topshirish hamda ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2000-yil 25-iyuldagi 283-son qaroriga muvofiq eski namunadagi shahodatnomalarni hisobdan chiqarish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi balansidagi 2023-yilga qadar chop etilgan shahodatnoma va sertifikat (keyingi o‘rinlarda - shahodatnoma) blankalari belgilangan tartibda hisobdan chiqarilsin.

2. 2023-yilga qadar chop etilgan shahodatnoma blankalari ro‘yxatini aniqlashtirish, hisobdan chiqarish va yo‘q qilish bo‘yicha vazirlik komissiyasi tarkibi (keyingi o‘rinlarda - komissiya) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Komissiya (E.Murodov)ga bir oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi elektron shahodatnomaning davlat namunasini tasdiqlash haqida” 2023-yil 31-yanvardagi 44-son qaroriga asosan umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi elektron shahodatnomaning davlat namunasi tasdiqlanganligi munosabati bilan 2023-yilgacha bo‘lgan eski namunadagi shahodatnoma blankalarini sanash, yo‘q qilish hamda yo‘q qilinganlik to‘g‘risida dalolatnoma tuzish vazifasi topshirilsin.

4. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi bosh hisobchisi (F.Jamuratova) komissiya dalolatnomasi asosida yo‘q qilingan blankalarni belgilangan tartibda hisobdan chiqarsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**

Toshkent sh,  
2023-yil 29-avgust,  
276-son



**X.Umarova**